

BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.

Yo'ldosheva Farangiz Erkin qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(boshlang'ich ta'lim) 1- bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim berish jarayonida ta'lim sifatini oshirish, har bir o'quvchini e'tiborini darsga jalb etish, darsda o'tilayotgan mavzu mohiyatini yanada aniq va qiziqarli tarzda ochib berishda zamonaviy axborot texnologiyalarining afzallik va qulaylik tomonlari hamda ahamiyati to'g'risida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim, axborot, zamonaviy texnologiyalar, kompyuter, taqdimot, samaradorlik, multimedia, ta'lim vositalari, animatsion, pedagogik, psixologik.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается использование современных информационных технологий в повышении качества обучения учащихся начальных классов, привлечении внимания каждого ученика к уроку, раскрытии сущности преподаваемого на уроке предмета в более наглядной и интересной форме. Дается информация о преимуществах и аспектах удобства и важности.*

Ключевые слова: *Учебная информация, современные технологии, компьютер, презентация. эффективность, мультимедийный, образовательный, образовательный, образовательный, психологический*

Abstract: *This article discusses the use of modern information technologies to improve the quality of teaching primary school students, attracting the attention of each student to the lesson, revealing the essence of the subject taught in the lesson in a more visual and interesting form. Information is given on the advantages and aspects of convenience and importance.*

Keywords: *Educational information, modern technologies, computer, presentation. efficiency, multimedia, educational, educational, educational, psychological*

Bilamizki, ta'limning bugungi kundagi asosiy vazifalaridan biri hozirgi zamonaviy yosh avlodni zamonaviy bilim, ko'nikma hamda malakalarni o'zlashtirgan komil inson sifatida voyaga yetkazishdir. Bu borada hozirgi kunda davlatimiz tomonidan o'qituvchilarning ta'lim berish jarayoniga ijodiy yondashishini ta'minlash va ularning faoliyatiga ilg'or pedagogik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish hamda o'quvchilarning barcha fanlarga qiziqishini oshirish maqsadida chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda va hayotga tadbir etib kelinmoqda. Bundan tashqari ta'lim jarayonida jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish, davlat byudjetidan mablag' bilan ta'minlash samaradorligini oshirish, yoshlar ta'lim olishi uchun qo'shimcha sharoitlar

yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha islohotlar amalga oshirilmoqda.[1]

Ta'lim jarayonini samarali hamda to'g'ri tashkil qilishda zamonaviy texnologiya vositalari ya'ni kompyuterlarning o'рни va ahamiyati beqiyosdir. Boshlang'ich sinflarda o'tilayotgan dars mavzusiga doir multimediya, grafika, animatsiya, diafilm, videofilmlardan foydalanish dars jarayonini yanada tushunarli va qiziqarli bo'lishiga ko'maklashadi va ushbu jarayon o'qituvchining an'anaviy ta'limdan ko'ra ko'proq noan'anaviy ta'lim berishga intilishini yuzaga keltiradi.

Har bir inson ongi axborot va ma'lumotlarning 90 foizini ko'rish orqali, 9 foizini eshitish orqali, qolgan 1 foizini esa his qilish orqali qabul qilar ekan. Bundan ko'rinib turibdiki, demak dars jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning amaliy ham nazariy, ijodiy va refleksiv tafakkuri rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy axborot va multimedia texnologiyalarida odatiy dars jarayonlariga qaraganda ma'lumotlar shunchaki matn ko'rinishida emas, balki video tasvir, harakatlar, ovozlari ko'rinishida namoyish etilishi o'quvchilarni darslarda diqqatli, qiziquvchat, faolroq hamda intiluvchan bo'lishiga yordam beradi. Masalan, tabiiy fanlar darsini oladigan bo'lsak, ushbu fan doirasidagi bir-biridan ajoyib va qiziqarli mavzularni aynan multimedia vositalari orqali tashkillashtirilsa, dars jarayonidan olinadigan natija an'anaviy dars jarayonidan olinadigan natijadan tubdan farq qiladi. Chunki o'quvchilar yil fasllari, tabiat hodisalar, iqlim, Quyosh sistemasidagi sayyoralar haqidagi bilimlarini ko'rish orqali a'lo darajada o'zlashtirishlari mumkin.[2]

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan boshlang'ich sinf o'quvchilarining deyarli barcha fanlarida foydalanish mumkin. Bundan tashqari darslarda turli xil o'yin hamda o'quv dasturlaridan ham foydalanish samarali bo'ladi. Rus tili yoki ona tili darslarida ham o'quvchilar savodxonligini oshirish maqsadida berilgan turli xil amaliy topshiriqlarni kompyuterda bajaradilar. Ona tili darslaridagi insho yozishda ham taqdimotlardan foydalanish juda qulay bo'ladi. Hattoki insho rasmlar asosida yozilayotgan bo'lsa, o'sha mavzuga oid rasmni ekranda ko'rsatish imkonini beradi. Birinchi sinflarda o'qish savodxonligi darsida ham zamonaviy texnologiyalaridan unumli foydalanish mumkin. O'qish savodxonligi darsida elektron o'quv qo'llanmalar tayyorlash va undan foydalanish mumkin. Ushbu qo'llanmada so'z bo'g'inlarining tuzilishi, so'zlarni tovushli va harfli tahlil qilish, ovoqli materiallar berish va trli qiziqarli ko'rgazmali materiallar berish samarali hisoblanadi.

Tasviriy san'at va texnologiya darslarida ham multimedia vositalaridan unumli foydalanish mumkin. Masalan, tasviriy san'at darslarida taniqli rassomlarning rasmlaridan namunalar namoyish qilish, turli loyihalar namunalari va bosqichlari bilan tanishtirish, texnologiya darslarida esa turli xil ko'rinishdagi qo'l mehnatlarini namoyish qilishda foydalansak ancha samarali natijalarga erisha olamiz. Birinchi sinf o'quvchilarida ona tili darslarida ham zamonaviy texnologiyalar hamda didaktik materiallardan foydalanish mumkin. Masalan, o'quvchilarga har bir so'zni yoki harfni tanishtirishda so'zlarga mos rasmlar ovoqli multimedialardan foydalanish yaxshi samara beradi. Bundan tashqari boshlang'ich sinf o'quvchilari ongida va qalbida milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz va milliy bayramlarimizga

nisbatan mehr-muhabbat hissini uyg'otish uchun ham multimedia vositalaridan foydalanish mumkin. "Navro'z " bayrami haqidagi tasavvurlarni shakllantirish uchun, shu bayram shukuhini bolalarga yetkazish uchun turli videoroliklar, yoki milliy multfilmlardan foydalanish mumkin [3]

Ta'limning ko'rgazmali metodi illyustratsiya hamda namoyish qilish metodiga bo'linadi. Illyustratsiya metodi asosan suratlar, plakatlar, xaritalar va doskadagi rasmlar va boshqalarni ko'rsatishni ko'zda tutsa, namoyish qilish metodi tajribalar, turli xil asboblari, texnik qurilmalar, turli xil ko'rinishdagi preparatlarni namoyish qilish bilan bog'liq. Ushbu metodga bundan tashqari diafilmlar va kinofilmlar ham misol bo'la oladi. Ta'lim vositalari deganda biz birinchi o'rinda ta'limdan ko'zlangan maqsadni amalga oshirishda xizmat qilayotgan metodlarning muvaffaqiyatli chiqishida ishlatiladigan o'quv asboblari tushunamiz. Bularga kompyuterlar, EHMlar, apparat turlari va turli xil shu kabi zamonaviy o'quv asboblari misol bo'la oladi.[4]

Axborot deganda biz biror ish yoki voqea-hodisalar haqida tushuncha beruvchi xabar va malumotni tushunamiz. Bugungi kun o'qituvchilardan ilg'or pedagogik va yangi axborot texnologiyalaridan o'qitish jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar hamda ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil ravishta fikr yuritishga, ijodiy izlanishga va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirishga hamda ularni darslarda o'rgangan bilimlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy texnologiyalar asosida yaratilgan shart-sharoitlardan unumli foydalangan holda darslarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etishlari ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini kafolatlaydi. Pedagogik faoliyatda turli xil axborot vositalari jumladan, kompyuter, televideniya, radio, nusxa ko'chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitafonlar yordamida ta'lim jarayonining tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'qituvchilar oldida ta'lim jarayonida turli xildagi axborot vositalaridan o'rinli hamda maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi. Masalan: "Videotopishmoq" metodini oladigan bo'lsak, bu metoddan boshlang'ich sinf o'quvchilarini dars jarayoniga qiziqtirish va fikrini dars jarayoniga qaratish maqsadida foydalansa bo'ladi. Ushbu metoddan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o'quvchilarning e'tiboriga o'rganilayotgan mavzu mohiyati va mazmunini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi;
- o'quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganini izohlashadi;
- ushbu jarayonlarning mohiyatini daftarlariga yozishadi;
- o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob berishadi.

Mazkur metod asosida mavzuga oid kompyuter orqali videolavha namoyish etiladi. O'quvchilar videolavha mavzusi va unda ifodalangan mavzu haqida o'z fikrlarini bildirishadi.[5]

Hozirgi kunda mamlakatimizdagi deyarli barcha umumta'lim maktablari zamonaviy kompyuter hamda axborot texnologiyalari bilan jihozlangan. Bu esa albatta boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mehnat faoliyatlariga yangicha yondashuvni talab qiladi. Zamonaviy axborot

texnologiyalari yordamida dars jarayonini olib borishda o'qituvchi quyidagi ketma-ketlikka amal qilishi lozim:

- darsning maqsadini aniqlab olish;
- maqsadga erishish yo'llarini ishlab chiqish;
- o'quv materiallarini taqdim etish usullari;
- O'qitish metodlarini belgilash;
- o'quv topshiriqlarining turlarini belgilash;
- dars muhokamasi uchun savollar tayyorlash;
- sinf o'rtasida munozara va bahslarni tashkil etish yo'llarini ishlab chiqish;
- o'zaro aloqa usullari va kommunikatsiya kabi omillarni aniqlab olishi lozim bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarda diqqatning tarqoqligi va fikrlarning og'ishishini hisobga olsak axborot texnologiyalari orqali o'tkazilgan dars albatta ularning etibori va diqqatini bir joyga jamlashga katta yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda multimedia texnologiyalaridan foydalangan holda dars tashkil qilish orqali o'quvchilarda fanga nisbatan qiziqish rivojlanadi. Ta'lim jarayonining bunday usuli o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini faollashtiradi hamda o'quv materiali o'zlashtirilishining samaradorligini taminlaydi. Murakkab va namoyish qilinishi qiyin bo'lgan jarayonlarni ko'rish va modellashtirish imkonini beradi. Kompyuter dasturlari orqali didaktik materiallar tayyorlashda va ularni kompyuter sinflarida o'tiladigan darslarda o'quvchilarga mustaqil ishlash uchun taqdim etish mumkin. Bu ko'rinishdagi didaktik materiallar izohli matn ko'rinishida, turli xildagi rasmlar bilan bezalgan holda hamda nazorat uchun savollar bilan birga o'quvchilarga beriladi va bajarilish jarayoni nazorat qilinadi.

Hozirgi rivojlangan ta'lim jarayonlarida "Aqliy hujum", "Fikrlar hujumi", "BBB", "Sinkveyn", "Yumaloqlangan qor", "Tarmoqlar", "Zigzag", "6x6x6", "Rolli o'yin" kabi zamonaviy texnologiya yordamida qo'llaniladigan metodlar ishlab chiqilgan.

Xulosa qilib aytganda, har bir boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi zamonaviy axborot texnologiyalaridan to'g'ri va samarali foydalansa, sinfdagi o'quvchilarning dars jarayoniga qiziqishi, bilim olishga bo'lgan intilishi va ishtiyoqi, o'zlariga bo'lgan ishonchning ortishi, mustaqil fikrlashi ortib boradi. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari esa o'z oldilariga qo'ygan maqsadlariga qiyinchiliksiz, oson erisha oladilar. Buning uchun o'qituvchilar zamonaviy texnologiyalardan to'liq foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishsa foydadan holi bo'lmaydi. Zero, o'qituvchilar darsning asosiy boshqaruvchisidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. R. A. Mavlonova, N. H. Rahmonqulova, K. O. Matnazarova, M. K. Shirinov, S. Hafizov. Umumiy pedagogika. – Toshkent: “Fan va texnologiya nashriyoti”, 2020
2. A. Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” – Toshkent: “Yoshlar nashriyot uyi”, 2018.
3. I. A. Rarimov. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2009.
4. Yo‘ldoshev J. G., Usmonov S. A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T: Fan va texnologiya, 2008.
5. Qayumova N. A. O‘qitishning axborot- ta’lim tizimi sharoiti va unda axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasi o‘qituvchilarini tayyorlash. Monografiya-T.: “Fan va texnologiya”, 2015. 192 b